

# “O‘ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI**
**O'ZBEK TILI, ADABIYOTI VA FOLKLORI INSTITUTI**

Professor
**RAHMATULLA BARAKAYEVNING**
70 yilligiga bag'ishlangan

# O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya

# MATERIALLARI TO'PLAMI

Toshkent, O'zbekiston

# COLLECTION OF MATERIALS

international scientific and theoretical conference

## THE CURRENT ISSUES OF UZBEK LITERARY CRITICISM

Tashkent, Uzbekistan

# СБОРНИК МАТЕРИАЛОВ

международной научно-теоретической конференции

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ УЗБЕКСКОЙ ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ

Ташкент, Узбекистан

1. XX asrning boshlari va 20-yillari (alifbo - she'rlar)
2. XX asrning 30-40 yillari (she'riyatni pand - nasihat namoyon bo'la borishi)
3. XX asrning 50-60 yillari (tinchlik, do'stlik, mehnat, yaratuvchanlik, Vatanmadhi mavzusidagi she'rlar asosiy o'ringa chiqishi)
4. XX asrning 70-80 yillari

   **a)** 1- yarmi hurfikrlilik bo'g'ib qo'yilgan davri, ijodkor fikrlari, ramzlar va imo - ishoralar, majozlarga ko'chishi (A.Obidjon, T.Adashboev she'rlari misolida)

   **b)** 2-yarmi. Istiqlol shabadalari aks etgan she'rlar, erksevarlik, yangi nafas, yangicha ruh aks etishi, mavzu va obrazlar tizimini kengayishi, bolakaylarning turlicha qiyofalari aks etishi (T.Adashboev, A.Obidjon, H.Imonberdiev, A.Akbar, D.Rajab kabi ijodkorlar misolida)
5. XX asrning 90-yillaridan bugungacha bo'lgan davr. (vatan mavzusi keng o'rin olishi, mazmun va shakliy jihatdan bir qancha yangilanishlarni aks etishi, ilm - ma'rifat, ta'lim - tarbiya bilan birga falsafiy mushohadalar keng o'rin egallagan davr.)

Bu davrlashtirish shartli bo'lib, har bir davrning o'ziga xos xususiyatini aks etgan. Bugungi davr bolalar she'riyati ifoda yo'sini, qahramonlar turfaligi. Falsafiy mushohadaga boyligi, shakli va mazmuniy jihatdan o'zgachaligi bilan ajralib turadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, R.Barakayev bolalar adabiyoti yuzasidan ko'plab izlanishlar olib borgan va eng dolzarb mavzulardagi ilmiy tadqiqotlari bilan jamoatchilik e'tiborini qozongan. Olimning ilm yo'lidagi xizmatlari bilan bir qatorda chin insoniylik hislatlari ham alohida e'tibor va e'tirofga loyiq. Ustoz muloqotda samimiyligi, bolalarcha beg'ubor va oqko'ngilligi, insonlar bilan barchaga birday munosabatda bo'lishi chin olimlik xususiyatlarini yanada oshirgan.

Ustoz Farg'onaga tashrif buyurganlarida shu yo'nalish bo'yicha tadqiqot olib borayotgan biz yoshlardan o'zlarining qimmatli vaqtlarini ayamay, erinmay bir qator maslahat va to'g'ri yo'nalishlar bergan. Xatto, o'zining ilmiy asarlarini ko'pinitaqdim qilgan. Men olimning shu qadar ochiqko'ngil, ilm borasida sahiyligiga lol qolganman va ustozga ko'rsatgan to'g'ri yo'llari, bergan bilimlariga tashakkur aytaman.

**Adabiyotlar**


1. Akbar A. Uyquchining tushlari.-T.: Sharq. 2006.–74b.
2. Баракаев Р. XX аср бошларидаги ўзбек болалар адабиёти ва Абдулла Авлоний ижоди: Фил.фан.номз... дисс. –Т.:1994. -166б
3. Баракаев Р. Жонажоним шеърият.–Т.: Чўлпон,1997.-88б
4. Баракаев. Р. Ўзбек болалар адабиёти қачон майдонга келган.//Ўзбек адабий танқиди. Тошкент, "Турон - Иқбол" - 2011. 386 - 396 б.

5. Қаҳрамонов Қ. Толмас тадқиқотчи. // Танқид ва адабиётшунослик. 2014- йил 14-март № 11-сон.
6. Gulnoza Abdullayeva Abdurahmon Akbar ijodida uslubiy izlanishlar. Research. Section 3: "Actual problems of classical and modern uzbek literature". (http://doi.org/10.47100/. vli2.204) 26.12.2020 B. 86-92

# OSKAR UAYLDNING "BAXTLI SHAHZODA" ASARINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASI

**Elboyeva Mahliyo Polvonquli qizi**
*Alisher Navoiy nomidagi O'zbek tili va adabiyoti universiteti O'zbek adabiyoti ta'limi kafedrasi o'qituvchisi*
*E-mail: elboyevamahliyo@navoiy-uni.uz*
*ORCID ID: 0000-0003-2619-3309*
*Tel: +99894678-80-59*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada Oskar Uayldning "Baxtli Shahzoda" asarini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari haqida so'z borgan.Yozuvchining ushbu ertagi amaldagi 6-sinf adabiyot darsligining "Rangin tuyg'ular" fasli ostida berilgan. Ushbu ertakni o'qitish davomida o'quvchilar boshqa fanlardan olgan bilimlarini asar bilan bog'lagan holda amalda qo'llab, mustahkamlab olib borishadi. Bunda asosan jahon ta'lim tizimidan kirib kelayotgan STEAM texnologiyasi asosida o'qitishning o'ziga xos qulayliklari ma'lum ma'noda yoritib berishga harakat qilingan. Bu texnologiya bolada mustaqil va kreativ fikrlashni rivojlantirishga xizmat qiladi.*

***Kalit so'zlar:*** *STEAM, texnologiya, ko'nikma, xo'roz parrak, furgon*

**Kirish:**

Ayni paytda o'rta ta'limda o'quv jarayoniga STEAM texnologiyasini joriy etish bilan bog'liq o'zgarishlar boshlanmoqda, bu esa pedagog kadrlarni kelajak kasblari bo'yicha qayta tayyorlash zarurligini ko'rsatadi. Mavzuni tanlash ushbu texnologiya o'quvchining ijodiy salohiyatini ochib berishga yordam berishi va ijodkorlik printsipi va kreativ fikrlashni nazarda tutilganligi bilan bog'liq. Va bu ta'lim jarayonida ijodkorlikka maksimal darajada e'tibor berishni anglatadi. Bundan tashqari, ushbu texnologiya ikkita yondashuvni birlashtiradi: loyihaga asoslangan va fanlararo. Muammo shundaki, ko'plab o'qituvchilar "loyiha usullari" ga o'tishga tayyor emaslar, chunki bu dasturni o'zgartirishni va aslida ixtisoslikni talab qiladi. Qolaversa, o'quv faoliyatiga texnologiyani joriy etish ham ko'proq xorij tadqiqotlariga mos ravishda rivojlantirilmoqda. Afsuski, bizning ta'lim tizimimizda ushbu turdagi ta'lim muammolari etarli darajada ishlab chiqilmagan. Muammoning holatini tahlil qilish ishning maqsadini shakllantirishga imkon berdi – bolalar adabiyoti darslariga STEAM texnologiyasini joriy etish asoslarini o'quvchining ijodiy salohiyatini ochishga yordam berish vositasi sifatida ko'rib chiqish.

**Muxokama:**

Darslikning "Rangin tuyg'ular" fasli ostida jahon bolalar adabiyotidan Oskar Uayldning "Baxtli Shahzoda" ertagi keltirilgan. Darslikda bu ertak orqali bolalarga badiiy adabiyotda jonlantirish san'ati haqida ham ma'lumotlar berib o'tilgan.[Mirzayeva Z,Jalilov K,2022] Bu yoshdagi bolalarda tabiat hodisalariga qiziqish, hayvonot olamiga muhabbat ularni o'zlariga yaqin olishlari ular bilan

suhbat qurishga intilishlari, ayniqsa qushlarga bo'lgan qiziqishlari bolaning ruhiyatiga xos xususiyat eklanligi ma'lum. "Baxtli Shahzoda" ertagini STEAMta'lim texnologiyasiga qo'yib o'rganamiz. Sinf o'quvchilari asar bilan tanishib chiqqan bo'lishlari kerak. Sinf o'quvchilariga STEAM texnologiyasi haqida tushuncha berib o'tamiz va sinf o'quvchilarini kichik guruhlarga ajratib olamiz va ularga texnologiyaning S- sicense qismi haqida tushuncha berib o'tamiz. Unga ko'ra o'quvchilar tabiiy fanlarga (geografiya, zoologiya, botanika, biologiya) oid bilimlarini yodga olishadi. Har bir guruhga asar yuzasidan topshiriqlar beramiz:

1- guruhga asarda qaldirg'och tilidan Misr yurtiga sayohat qilish topshirig'i beriladi. Bunda talabalar Misr yurtining tabiati, ob-havosi, shaharlari haqida ma'lumot berib o'tishlari kerak. O'z fikrlarini dunyo xaritasidan foydalangan holda bayon qilib berishlari kerak. Bu orqali geografiyadan olgan bilimlarini qayta yodga olib, mustahkamlashadi.
2- guruhga asarda Baxtli Shahzoda tilidan aytilgan San-Susi saroyi aytib o'tilgan. Sizlar shu saroy haqida ma'lumot berib o'tasiz,ya'ni qayerda joylashgan kim qurdirgan,saroy qanday ma'noni anglatgani kabi ma'lumotlarni berishingiz kerak. Bu orqali bolajonlar tarix va geografiyadan olgan bilimlarini esga olishadi.
3- guruhga Nil daryosi, Misrdagi shohlarning daxmalari va mumiyolar haqida ma'lumot berishlari aytiladi. Bunda o'quvchilar tarix fanidan olgan bilimlariga tayanishadi.

O'quvchilarga bu topshiriq orqali adabiyotning tarix va geografiya fanlari bilan aloqadorligini tushuntirib o'tiladi. O'quvchida fanga nisbatan qiziqish, mustaqil harakat qilish, jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. O'quvchilar dars davomida topshiriqlarni bajarish jarayonida mavzudan uzoqlashishi, diqqati tarqalishi holatlari bo'lishi mumkin yoki aksincha ular katta qiziqish bilan yana qanday topshiriqlar bajaramiz deb kutib turishlari mumkin. Shunday vaziyatlarda ularga yana bir ijodiy topshiriq beramiz. STEAM texnologiyasining E- enginering (muhandislik)qismi bu qismda o'quvchilarga asar yuzasida amaliy topshiriq sifatida quyidagi topshiriqlarni beramiz:

- har bir jamoa asarda berilgan "xo'roz parrak" tasviriga diqqat qiling uni amalda yasab foydali xususiyatlarini va nega Baxtli Shahzoda bilan birga tilga olinayotganini izohlang



Xoʻroz parrak haqida manbalarda shunday maʼlumotlar beriladi: Xoʻroz parraklar dastavval Anemoskop deb ataladigan furgon yaʼni bu – shamolning yerga yaqin yoʻnalishini koʻrsatadigan qurilma. U oʻrnatilgan bino faoliyatinikoʻrsatadigan haykalcha shaklida boʻlishi yoki hayvonni tasvirlashi mumkin. Xoʻrozlar "hayvon" subyektlari orasida eng ommabopga aylanga haykalcha hisoblanadi. Tarixchilarga maʼlum boʻlgan xoʻroz parraklarning eng qadimgi namunalari Afina shahrida Shamollar minorasida joylashgan. Ehtimol, u miloddan avvalgi 48-yilda qilingan va Triton xudosini anglatadi degan qarashlar ham mavjud. Oʻshandan buyon ob-havo xoʻrozlari ramziy maʼnoga ega. Parrakning shakliga kattaahamiyat berildi, chunki odamlar ob-havo qanotlari uyni muammolardan himoya qiladigan tilsim ekanligiga ishonishdi. Masalan, Yevropada jodugarlar va mushuklarning haykalchalari baxtsizliklarni oldini oladi va uning tomidagi xoʻroz haykalchasi uy egasini yaqinlashib kelayotgan falokat toʻgʻrisida ogohlantiradi deb ishonishgan. Tarix davomida kokerel furgon uchun eng mashhur bezak boʻldi. Va nafaqat Yevropada xususan, ingliz tilida parrak "ob-havo xoʻroz" deb nomlanadi, bu soʻzma-soʻz tarjimada "ob-havo xoʻroz" deb tarjima qilinadi.

Hatto butparastlik davrida ham u hayot kuchini oʻziga xos qilib koʻrsatdi. Bundan tashqari, koʻplab ertaklarda xoʻrozning qichqirigʻi yovuz ruhlarni haydab chiqaradi va yangi kun kelishini anglatadi. Qadimgi Forsda xoʻroz sehrli mavjudot deb hisoblangan. U hushyorlikning ramzi va timsoli edi. Ushbu mavjodot ajablantirmaydi, u kecha-kunduz navbatchilik qiladi. Afsonaga koʻra, xoʻroz hatto olovdan va oʻgʻrilardan himoya qiladi. Nasroniylikda xoʻroz Sankt-Peterning timsolidir. Muqaddas Kitobga koʻra, havoriy Butrus xoʻroz ikki marta qichqirguncha Masihni uch marta rad etgan. IX asrning oʻrtalarida Papa farmonni imzoladi, unga koʻra xristianlar voz kechishni unutmasliklari uchun har bir cherkov shpiliga xoʻroz haykalchasi qoʻyilgan edi. Boshqa bir versiyaga koʻra, bu

o'zini kimlargadir baxshida qilib yashaydigan, o'zidan kechish va o'zini qurbon qilishga kuch topadigan o'zbek qizi tabiati yaqqol namoyon bo'ladi. Uning o'zi ixtiyorsiz ravishda domiga tushgan ilohiy muhabbat tuyg'usiga loyiq pokiza shaxs ekani otasining xorlanishini istamasligida, chegarasiz imkoniyatlaridan ustamonlik bilan foydalanishga urinmasligida, beadad og'riqlarga chidab bo'lsa ham ixtiyorini olib qo'ygan yuksak tuyg'udan o'z xohishi bilan voz kecha bilishida namoyonbo'ladi. Shuningdek, o'zi bilan o'zi kurashaverib yuragi tamom bo'lgan Saboning donor yurakda Samandarga bo'lgan tuyg'ular saqlanib qolmasligidan xavotirlanib, uni olishni istamasligi kabi o'rinlar qiz tabiatiga xos ezgu qirralarni aks ettirgani bilan diqqatga loyiqdir"[Yo'ldoshev Q: 3:9.]. Darhaqiqat, munaqqidning mulohazalari juda o'rinlidir. Ayniqsa, Saboning yuragini almashtirmasdan, Samandarga bo'lgan muhabbati bilan birga qolishi va u dunyoga ham birga ketishini xohlab umr kechirishida ramziy ma'no mujassam. Negaki, Sabo har qanday vaziyatda ham, tashqi olam qonunlariga ichki, botiniy-ruhiy olamining istaklaribilan javob berib yashashda davom etadi. Ruh har qanday vaziyatda uning botiniy istaklarini bajo keltirishdan sira tinim bilmaydi. Ayni paytda, Samandarga bo'lgan dilizhorini radio yoki she'r mutolaasi, xat-maktub shaklida yetkazib turishni o'ziga go'zal yumush deb biladi:

"Inson o'zi yoqtirgan, yaxshi ko'rgan va sevgan kishilarini doimo sog'inib yashaydi, - derdi Saboning xushxon ovozi. – Lekin hayotimiz aksariyat shunday kechadiki, yuragimizda shu sog'inchni olib yuraveramiz-yuraveramiz. Garchi o'sha qalbimizdan joy olgan yaqin insonimizni ko'rgimiz kelib qiynalsak ham ko'pincha uni ko'rmaymiz, ko'rolmaymiz. Keraksiz va ba'zan o'zimiz g'anim bo'libqoladigan g'ururni, hech qachon tugamaydigan kundalik tashvishni va yana ko'p- ko'p vajni ro'kach qilamiz-da, umrimizni suvga oqizib ketaveramiz. Xo'sh, aslida qanday bo'lishi lozim? Qaysi yo'l odamlarni, ularning ko'ngillarini xushnud etadi? Albatta, diydorlashuv, ko'rishuv, suhbatlashuv. Janob payg'ambarimiz Muhammad alayhissalom ham yaxshi ko'rgan kishilaringizga o'z muhabbatingizni vaqti-vaqti bilan bildirib turing, deb o'git bergan ekanlar"[O'sha roman: 3: 283].

Romandagi mana shu lavha Saboning har qanday vaziyatda ham ***"Inson o'zi yoqtirgan, yaxshi ko'rgan va sevgan kishilarini doimo sog'inib yashaydi"*** – jumlasi bilan Samandarning yurak-yuragini timdalayotgan ISHQ og'riqlariga malham bo'ladi. Bunday vaziyatda Samandar o'zida qandaydir kuch topadi. Hali Saboning undan ko'ngil uzib ketmaganligidan xavotir olgan lahzalarini xotirjamlik tuyg'usi kelib egallaydi. Bu tuyg'u Samandarning yanada kuchliroq bo'lishga, hayotga muhabbat bilan qarashiga kuch topadi. Imkon va ishtiyoqni hosil qiladi. Fasl xronotopi romanda juda katta mavqye bajaradi. Unda Saboning o'y-xayollari bilan yonib umr kechirayotgan Samandar odamlarni teranroq kashf etadi. Shunday

bo'lsa-ad, o'zidagi ilohiy bir muhabbat bilan qorishib ketgan Saboning xayollarini bir dam bo'lsin tark etishni hyech qachon xohlamaydi. Yozuvchi fasl xronotopiga alohida mantiqiy urg'u berarkan, jamiyatning o'sish-o'zgarishlari naqadar turlanib borayotganidan xavotir olayotgan qahramonlar toifasini ikki guruhga ajratib tashlaydi: birinchi toifa, ko'ngil kishilari, ikkinchi qatlam esa zamonning taraqqiyoti bilan birga baqamti yuradigan toifadir. Mana shu yerda ikki guruhning tanlovi yuzaga chiqadi. Bular muhabbatga turli tomondan (manfaat va istak, chin va yolg'on, haqiqat va adolat) nuqtayi nazaridan baho berishga shoshiladilar. Demak, Ulug'bek Hamdam romanning syujet qismlarida aniq bir mantiqni – muhabbatmavzusi bilan belgilab olishga erishgan. Faslning o'zgarishi qahramon badiiy dunyosining ham o'sish-o'zgarishini taqozo etmoqda.

Umuman, U.Hamdamning "Sabo va Samandar" romani badiiy xronotop shakllarining turli xil varinatlarini sinovdan o'tkazishga imkon beradi. Xususan, fasl xronotopi qahramon badiiy olamini yanada o'quvchiga yaqinlatirishga xizmat qiladi. Eng asosiysi, xarakter va vaziyat taqozosi bilan ro'y berayotgan har qanday voqyelik o'quvchini mudhish ishq ko'rguliklaridan befarq qoldirmaydi.

**Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Baxtin M.M. Romanda zamon va xronotop shakllari. –T.: "Akademnashr". 2015. –B.112-113.
2. Hamdamov U. Sabo va Samandar. –T.: "Yangi asr avlodi". 2022. –B.282-283.
3. Yo'ldoshev Q. Visolsiz ayriliq tongi. "Sabo va Samandar" romaniga yozilgan so'z boshi. –T: Yangi asr avlodi. 2022. -B.9.
4. O'sha asar, -B.28

## O'ZBEK ADABIYOTSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI
**mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya**


| No | Paper Title | Page No |
|---|---|---|
| | **RAHMATULLA BARAKAYEVNING ILMIY IJODI VA UNING AHAMIYATI** | |
| 1. | **RAHMATLARDAN BARAKA TOPGAN OLIM**<br>Abduvahob Madvaliyev | 8-12 |
| 2. | **RAHMATULLA BARAKAYEV VA UNING OLIMONA FAOLIYATI**<br>Hamidulla Boltaboyev | 13-14 |
| 3. | **RAHMATILLA BARAKAYEV – OLIMNING HAYOT VA ILM YO'LLARIGA CHIZGILAR**<br>Ulug'bek Hamdamov | 15-21 |
| 4. | **BOLALAR ADABIYOTINING FIDOYI OLIMI**<br>**Qurdosh Qahramonov** | 22-25 |
| 5. | **BOLALAR ADABIYOTINING ZUKKO BILIMDONI**<br>Jabbor Eshonqulov | 26-29 |
| 6. | **RAHMATULLA BARAKAYEV HAQIDA**<br>Suvon Meli | 30-34 |
| 7. | **RAHMATNING BARAKASI**<br>Sultonmurod Olim | 35-39 |
| 8. | **BOLALAR ADABIYOTI VA TARBIYA**<br>Nishonboy Husanov | 40-43 |
| 9. | **OLIMNING YIGIT YOSHI**<br>Zuhriddin Isomiddinov, Zuhriddin Isomiddinov | 44-46 |
| 10. | **RAHMATULLA BARAKAYEV HANGOMALARI**<br>Ergash Ochilov | 47-57 |
| 11. | **HAQIQIY ZIYOLI YOKI BARCHANING RAHMATILLA AKASI...**<br>Shoira Axmedova | 58-60 |
| 12. | **YUZI NURGA, QALBI DURGA TO'LIQ USTOZ**<br>Dilrabo Quvvatova | 61-62 |
| 13. | **RAHMATULLA BARAKAYEV SHAXSIYATIGA CHIZGILAR**<br>G'ayrat Murodov | 63-66 |
| 14. | **BOLALAR ADABIYOTINING NOZIKTA'B ZARSHUNOSI**<br>Laylo Sharipova | 67-70 |
| 15. | **BOLALAR ADABIYOTINING TOLMAS TADQIQOTCHISI**<br>G'ayipov Dilshod Qadambayevich | 71-74 |
| 16. | **ILM YO`LIDA FIDOYILIK….**<br>Sabirova Nasiba Ergashevna | 75-77 |
| 17. | **QALBI DARYO USTOZ**<br>Baxshillo Ashurov | 78-80 |
| 18. | **ZAHMATKASH USTOZ**<br>Dilorom To'rayeva | 81-83 |
| 19. | **BOLALIKKA OSHUFTA QALB EGASI...**<br>Nusratova Hamida Cho'liboyevna | 84-85 |
| 20. | **MEHR KO'RGAN, MEHR QO'YGAN USTOZIM**<br>Zafar Mamatalimov | 86-90 |
| 21. | **BOLALARNI USTOZ BILGAN USTOZIM**<br>Zafar Mamatalimov | 91-94 |
| 22. | **USTOZGA EHTIROM**<br>Dilrabo Igamuratova | 95-97 |
| 23. | **MEHRI UMMON, QALBI DARYO, OLIMLARNING OLAMIDAGI USTOZ**<br>Musayeva Shaxlo | 98-99 |
| 24. | **BOLALAR ADABIYOTINING NUKTADON OLIMI**<br>Jumayev Farhod Akmamatovich | 100-102 |
| 25. | **RAHMATULLA AKAGA** Dilshod Rajab<br>**RAHMATILLO USTOZGA** Xudoyberdi Komilov<br>**QUTLUG' MA'RAKA** Ravshan Isoq | 103-109 |

| | | |
|---|---|---|
| | **USTOZ RAHMATULLA BARAKAYEVGA SHOGIRD TABRIGI**<br>Naima Anvarova<br>**EHTIROM VA E'TIROF** Erpo'lat BAXT<br>**USTOZ RAHMATILLA BARAKAYEVGA** DURPOSHSHO<br>**USTOZ RAHMATULLA BARAKAYEVGA BAG'ISHLAYMAN!**<br>Xursandbek To'liboyev | |
| | **JADID ADABIYOTINI O'RGANISH MASALALARI** | |
| **26.** | **AVLONIY ZIYOSI**<br>Bahodir KARIM | **110-114** |
| **27.** | **"ABULFAYZXON" TRAGEDIYASINING YARATILISH TARIXI VA TAQDIRI**<br>Ilhom G'aniyev | **115-119** |
| **28.** | **JADID MA'RIFATPARVARLARI FAOLIYATINING YANGI O'ZBEK ADABIYOTI TARAQQIYOTIGA TA'SIRI**<br>Abduhamid Xolmurodov | **120-123** |
| **29.** | **ILM-U ZIYO JADIDLAR ZIKRIDA**<br>Mo'minjon Siddiqov | **124-129** |
| **30.** | **JADIDCHILIK HARAKATIGA QADAR TURKISTON MUSTAMLAKASIDAGI TA'LIM TIZIMINING ILMIY-MA'NAVIY, IJTIMOIY HOLATI**<br>Amonov Ulug'murod Sultonovich | **130-134** |
| **31.** | **ABDULLA AVLONIY HIKOYATLARINING O'ZIGA XOSLIGI**<br>Fozilova Odina Nabievna, Shohidaxon Teshaboeva | **135-139** |
| **32.** | **MOLLANASRADDİNCHİLAR VA JADİDLAR PUBLİTSİSTİKASİDA YANGİ MADANİYAT VA MİLLİY TİL PROBLEMİ JALİL MAMMADGULİZODA VA MAHMUDXO'JA BEHBUDİY**<br>İlhoma Sultonova | **140-147** |
| **33.** | **USMON NOSIR IJODI VA HOZIRGI ADABIY JARAYON**<br>Gulshoda Jo'npolatova | **148-152** |
| **34.** | **MILLAT OYDINLARI**<br>Mamaraximova Nigora Mahmudjonovna | **153-156** |
| **35.** | **JADIDLAR SHOIRLARI MAKTAB XUSUSIDA**<br>Sherzod Xo'jamberdiyev | **157-163** |
| **36.** | **ABDULHAMID CHO'LPON MEROSINING HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI**<br>Utanova Vaziraxon Maxmudjon qizi | **164-167** |
| **37.** | **MA'SUMA ROMANI HAQIDA**<br>Jo'raqulov Sardor O'ktam o'g'li | **168-171** |
| | **O'ZBEK BOLALAR ADABIYOTI MUAMMOLARI** | |
| **38.** | **КИШИ АСЛЫ БИЛМӘК ТИЛӘСӘ АЧУҚ...**<br>BoqijonTO'XLIYEV | **172-176** |
| **39.** | **BADIIY IJODDA INDIVIDUALLIK MOTIVATSIYASI (Anvar Obidjon portretiga chizgilar)**<br>Safo Matchonov | **177-183** |
| **40.** | **ДУХОВНЫЙ ДВОЙНИК ЧЕЛОВЕКА**<br>Муминов Файзулла Абдуллаевич | **184-188** |
| **41.** | **BOLALAR QISSALARIDA AVTOBIOGRAFIZM VA BADIIY KONSEPSIYA**<br>Jamilova Bashorat Sattorovna | **189-195** |
| **42.** | **BOLALARGA BAG'ISHLAB YOZILGAN SHE'RLAR XUSUSIDA (Shuhrat ijodi misolida)**<br>Soatova Nodira Isomitdinovna | **196-204** |
| **43.** | **BUGUNGI BOLALAR ADABIYOTI MUAMMOLARI: MULOHAZA VA TAKLIFLAR**<br>Erpo'lat Baxt | **205-212** |
| **44.** | **BOLALAR PUBLITSISTIKASI RIVOJIDA SAFAR BARNOYEVNING O'RNI**<br>Hamida Nusratova Cho'liboyevna | **213-216** |
| **45.** | **ANVAR OBIDJON HIKOYALARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI**<br>Fozilova Odina Nabiyevna | **217-219** |

| | | |
|---|---|---|
| 46. | **"QASOSKORNING OLTIN BOSHI" – TARIXIY-SARGUZASHT ROMAN SIFATIDA**<br>Lutfullayev Jahongir Amirovich | 220-226 |
| 47. | **TOJIKISTONDA O'ZBEK BOLALAR SHE'RIYATI TARAQQIYOTI (Shoir Sultonmurod Hojiboyev ijodi misolida)**<br>Sattorov O'ktamali Abbosovich | 227-237 |
| 48. | **BOLALAR BILAN BOG'LIQ IRIMLARNING DIDAKTIK XUSUSIYATLARIGA DOIR**<br>Nasiba Tursunova | 238-241 |
| 49. | **ZAMONAVIY BOLALAR NASHRLARIDA SARLAVHANING PSIXOLINGVISTIK ASPEKTI VA ROLI**<br>Nargiza Abdukaxarovna Mirzayeva | 242-245 |
| 50. | **KICHIKLAR ADABIYOTINING KATTA OLIMI**<br>Gulnoza Abdullayeva Voxidjonovna | 246-251 |
| 51. | **OSKAR UAYLDNING "BAXTLI SHAHZODA" ASARINI ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QITISH METODIKASI**<br>Elboyeva Mahliyo Polvonquli qizi | 252-256 |
| 52. | **O'ZBEK BOLALAR SHE'RIYATIDA YUMORNING AN'ANAVIYLIGI VA TARAQQIYOTXUSUSIYATLARI**<br>Qobilova Aziza Ahrorovna | 257-262 |
| 53. | **SHOYIM BO'TAYEV HIKOYALARIDA XARAKTERLAR TASVIRI**<br>Muydinov Muhammadzoir Zafarjon o'g'li | 263-268 |
| 54. | **ИЗ ИСТОРИИ ПЕРЕВОДА УЗБЕКСКОЙ ДЕТСКОЙ ПРОЗЫ НА РУССКИЙ ЯЗЫК**<br>Шаропова Нафиса Бахшилло кизи | 269-274 |
| 55. | **O'QUVCHILAR NUTQINI O'STIRISHDA BOLALAR ADABIYOTINING AHAMIYATI**<br>Gulnoza Xasanova Inamjanovna | 275-277 |
| 56. | **UMUMIY O'RTA TA'LIMNING RUSIYZABON BOSHLANG'ICH SINFLARIDA BOLALAR ADABIYOTINING O'QITILISH MASALALARI**<br>Klebleeva Guzal Davlyatovna | 278-280 |
| | **O'ZBEK ADABIYOTI: TADQIQ VA TALQIN** | |
| 57. | **TOG'AY MUROD QISSALARIDA ESTETIK IDEAL TALQINI**<br>Sanobar To'laganova | 281-286 |
| 58. | **MUHAMMAD RAHMON SHE'RIYATIGA BIR NAZAR yoxud SHOIRNING BADIIY FOLKLORIZM YARATISH MAHORATI**<br>Marhabo Qo'chqorova Xudoyberganovna | 287-293 |
| 59. | **ABDULLA ORIPOVNING QASIDANAVISLIK MAHORATINI O'RGANISHGA DOIR (Шоирнинг "Ўзбекистон" қасидаси мисолида)**<br>Файзуллоев Бахтиёр Бобожонович | 294-302 |
| 60. | **SHE'RIYATDA TURNA OBRAZI (Omon Matjon she'rlari misolida)**<br>Pirnazarova Manzura Matnazarovna | 303-306 |
| 61. | **"SAODAT SOHILI" QISSASIDA BADIIY TRAGIZM**<br>Karimova Yulduz Akulovna | 307-316 |
| 62. | **"USMON AZIMNING "ADOLAT FASLI" TARIXIY DRAMASIDA ADOLATPARVARLIK IJTIMOIY ESTETIK IDEALI**<br>Atadjanov G'ulomjon To'xtaboevich | 317-319 |
| 63. | **ABDUQAYUM YO'LDOSH ASARLARIDA MAKON VA ZAMONNING BADIIY AHAMIYATI**<br>Z. Teshaboyeva | 320-327 |
| 64. | **"OTCHOPAR YOXUD O'N UCHINCHI UY" QISSASIDA AN'ANA VA VORISIYLIK**<br>Farxod Nizomov | 328-332 |
| 65. | **TIL VA MAHORAT (DILMUROD QURONOV ASASRLARI MISOLIDA)**<br>Qodirov Abdulazizbek Luqmonjon o'g'li | 333-337 |
| 66. | **SHAVKAT RAHMON G'OYAVIY-ESTETIK QARASHLARI**<br>Aliyeva Orzigul Zokir qizi | 338-343 |
| 67. | **LUQMON BO'RIXONNING "JAZIRAMADAGI ODAMLAR" ROMANIDA MAHALLIY KOLORIT**<br>Turdiyeva Yulduz | 344-347 |

| | | |
|---|---|---|
| 68. | **QO'CHQOR NORQOBIL QISSALARIDA RUHIY HOLAT TASVIRI**<br>Abdurahimova Manzura Shokirjon qizi | 348-352 |
| 69. | **SHUKRULLONING "TABASSUM O'G'RILARI" DRAMASIDA IJTIMOIY MUAMMOLAR TALQINI**<br>Kurbanova Saida | 353-357 |
| 70. | **PEDAGOGIK TEST TUZISHDA O'QITUVCHILARNING MAHORATINI OSHIRISH**<br>Kamoliddinova Nargiza | 358-362 |
| 71. | **ZAMONAVIY HIKOYALARDA SHARPA OBRAZI TALQINI**<br>Bo'riboyeva Muqaddas Zayniddinovna | 363-369 |
| | **ADABIYOT NAZARIYASI VA ADABIY TANQID MASALALARI** | |
| 72. | **METODOLOGIYA HAQIDA AYRIM MULOHAZALAR**<br>Dilmurod Quronov | 370-377 |
| 73. | **ADABIYOTSHUNOSLIKDA DIALOG TARIXI VA NAZARIY TALQINLARI**<br>Matyakupov Sa'dulla | 378-385 |
| 74. | **TILNING KONDENSATSIONAL FUNKSIYASI**<br>M.Hakimov, M.Gaziyeva | 386-389 |
| 75. | **TILSHUNOSLIKDA SO'Z MUSTAQILLIGI VA SO'ZLOVCHI SHAXS**<br>Sharifa Iskandarova | 390-392 |
| 76. | **NAZAR ESHONQULNING "GO'R O'G'LI" ROMANIDA TUSH RAMZIYLIK MODUSI SIFATIDA**<br>To'liboev Xursandbek Bazarbaevich | 393-397 |
| 77. | **METAFORA – MA'NO VA TUYG'U UYG'UNLIGI**<br>Dadaxon Muhammadiyev | 398-402 |
| 78. | **"OZOD" ROMANDA OBRAZ TALQINI VA KOMPOZITSION O'ZIGA XOSLIK**<br>Maqsud Ergashev | 403-408 |
| 79. | **FOLKLOR JANRLARIDAGI RAMZLARNING O'RGANILISHI XUSUSIDA**<br>Mohira Abduraxmonova | 409-414 |
| 80. | **REALISTIK VA MODERNISTIK YO'NALISHDAGI ASARLARDA ZAMON-MAKON SHAKLLARI**<br>**(Nazar Eshonqul ijodi misolida)**<br>Nilufar Cho'liyeva A'zam qizi | 415-421 |
| 81. | **KOMPSYUJET - BADIIY ASAR SYUJETI ASOSIDA TASHKIL ETILADIGAN TA'LIMIY KOMPYUTER O'YINLARI**<br>Saburova Qunduz Erkebay qizi | 422-426 |
| 82. | **СТИЛЬ АБДУЛХАМИД САМАД И ЕГО ОСОБЕННОСТИ**<br>Хусейнова Заррина Сайдуллоевна | 427-433 |
| 83. | **AQSH ADABIYOTI TARIXI VA TARAQQIYOTIDA SHAXS VA DAVR MUNOSABATLARINING NAZARIY ASOSLARI**<br>Nasriyeva Guzal Zulfiddin qizi | 434-437 |
| 84. | **NOVELLA JANRIDA PSIXOLOGIK TASVIR VA RAMZIYLIK**<br>**("Olis Leytey dengizi" misolida)**<br>Charos Avazova | 438-441 |
| 85. | **JUMBOQ ORTIDAGI HAYOT YOXUD ANGLAB YETILGAN FALSAFA**<br>Sindarova Dilbar Sobir qizi | 442-444 |
| | **ADABIY ALOQALAR VA TARJIMASHUNOSLIK** | |
| 86. | **BIZDAGI TARJIMA MUAMMOLARI**<br>Zuhriddin Isomiddinov | 445-449 |
| 87. | **BADİİY TARJİMA – ADABİY ALOKALARNİNQ SHOH TOMİRİDİR**<br>Yashar Kosim | 450-460 |
| 88. | **OYBEKNING "QUTLUG' QON" ROMANI TURK TILIDA**<br>Hamidov Xayrulla | 461-466 |
| 89. | **"ALPOMISH" DOSTONI HASAN PAKSOY TALQINIDA**<br>H.O'.Yusupova | 467-469 |
| 90. | **ZAMONAVIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA RETSEPTIV-ESTETIK TAMOYILLAR**<br>Abdulaziz Qosimov | 470-474 |

| | | |
|---|---|---|
| 91. | "SHAMSHIRBOZ" ERTAGIDA QO'LLANILGAN MILLIY FRAZEOLOGIZMLAR TARJIMASI BORASIDA AYRIM MULOHAZALAR<br>Dilrabo Igamuratova | 475-480 |
| 92. | ҚУВАЙТ АДАБИЁТИДА РЕАЛИСТИК ҲИКОЯНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА ТАКОМИЛИ<br>Ш.И.Аҳмедова | 481-491 |
| 93. | QIYOSIY ADABIYOTSHUNOSLIKDA ADABIY TA'SIR MASALALARI<br>Sherkulov Sardor Komilovich | 492-495 |
| 94. | TEODOR DRAYZERNING HAYOTI VA IJODIGA QISQA EKSKURS<br>Atabayeva Nilufar Atamuratovna | 496-500 |
| 95. | СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К ОФОРМЛЕНИЮ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ТЕКСТОВ И ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПЕРЕВОДОВ<br>Шаропова Нилуфар Бахшиллаевна | 501-507 |
| 96. | O'ZBEK KOREYS ADABIY ALOQALARI VA TARJIMA<br>To'raqulova D | 508-513 |
| 97. | MILLIYLIKNI TARJIMASHUNOSLIK FANINING TADQIQOT OBYEKTI SIFATIDA O'RGANISH MASALALARI<br>Umidbek Saidov Shavkat o'g'li | 514-520 |
| 98. | KIBERPANK ADABIYOTIDAGI KONTSEPTUAL VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLAR<br>Nishonov Ilxom Dilmurodovich | 521-524 |
| 99. | NAVOIY RUBOIYLARI QORAQLPOQCHA TARJIMASIDA SO'Z VA OHANG<br>Z.G.Azilova | 525-532 |
| | **O'ZBEK XALQ OG'ZAKI IJODI VA FOLKLORSHUNOSLIK** | |
| 100. | XALQ MAQOLLARINING E'TIDODIY ASOSLARI<br>Rahmatov Yo'ldosh G'aybullayevich | 533-538 |
| 101. | OYNA BILAN BOG'LIQ E'TIQODIY QARASHLAR<br>Xudayqulova L.A | 539-542 |
| 102. | O'ZBEK XALQ TOPISHMOQLARIDA PEYZAJ<br>Munis Jo'rayeva Yunusovna | 543-545 |
| 103. | HODI ZARIFOV O'ZBEK EPOSSHUNOSLIGI ASOSCHISI<br>Barno Mirzayeva | 546-550 |
| 104. | HAZRATI ALINING AFSONAVIY QILICHI HAQIDA<br>Bafoyev Farruh Sadriddinovich | 551-555 |
| 105. | SIROJIDDIN SAYYID IJODIDA XALQ OG'ZAKI IJODI AN'ANALARI<br>Fayzullayeva Ra'no Maxmudovna | 556-560 |
| 106. | O'ZBEK VA TURK ALLALARIDA OTA OBRAZINING QIYOSIY TALQINLARI<br>Egamberdiyeva Shamsiya Mamajonovna | 561-564 |
| 107. | ISAJON SULTON HIKOYALARI VA MIF<br>Aliyeva Dilshoda Zokir qizi | 565-569 |
| | **MUMTOZ ADABIYOTNI O'RGANISHDA NAZARIY YONDASHUV VA METODLAR** | |
| 108. | YETUKLIK SHUKUHI<br>Maqsud Asadov | 570-576 |
| 109. | KLASSİK ŞƏRQ UŞAQ ƏDƏBİYYATI<br>Almaz Ülvi Binnətova | 577-592 |
| 110. | ABDURAHMON JOMIY VA BOBUR<br>Burobiya Radjabova | 593-606 |
| 111. | "QUSH TILI" XALQARO ANTOLOGIYASI XUSUSIDA FIKR MULOHAZALAR<br>Roviyajon Abdullayeva | 607-615 |
| 112. | ISAJON SULTONNING ANALITIK FOLKLORIZMLARDAN FOYDALANISH MAHORATI<br>Zebo Qobilova, F.Qurbonova | 616-620 |
| 113. | NOSIR BUXORIY IJODIDA IRFONIY ISTILOH VA TIMSOLLAR<br>Ergash Ochilov | 621-630 |